

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHOLG'U IJROCHILIGI TO'GARAKLARINI TASHKIL QILISH

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

Farg'ona mintaqaviy filiali

Cholg'ushunoslik va nazariy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Mamarahimov Rustamjon Ibrohimovich

Akademik vokal xonandaligi 1-bosqich Magistratura talabasi

Mamarahimova Sarvinozxon Shuhratjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 112-soni qaroriga muvofiq umumta'lism maktablarida o'quvchilarning musiqiy ta'limi va estetikasini rivojlantirishda sinfdan tashqari cholg'u ijrochiligi to'garaklarini tashkil etish faoliyati, metodikasi, ish olib borish uslublari va o'quvchilar muktabni tamomlaguncha milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahoratini shakllantirish va bu orqali o'quvchilarda milliy musiqa asboblariga qiziqish uyg'otish va ijrochilik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan maqsad ilgari surilmoqda.

Abstract. This article focuses on the organization of extracurricular instrumental performance clubs in general education schools in accordance with Presidential Decree No. 112 by Shavkat Mirziyoyev. It highlights the activities, methodologies, and approaches aimed at developing students' musical education and aesthetics. The goal is to ensure that by the time students graduate, they have mastered the ability to perform at least one melody on a national musical instrument. Through this, the aim is to spark students' interest in traditional musical instruments and enhance their performance skills.

Аннотация. Данная статья посвящена организации внеурочных кружков инструментального исполнительства в общеобразовательных школах в соответствии с Постановлением №112 Президента Шавката Мирзиёева. Основное внимание уделено деятельности, методике и подходам, направленным на развитие музыкального образования и эстетического воспитания учащихся. Цель состоит в том, чтобы к окончанию школы учащиеся овладели навыком исполнения хотя бы одного произведения на национальном музыкальном инструменте. Таким образом, предполагается пробудить интерес школьников к традиционным музыкальным инструментам и развить их исполнительское мастерство.

Kalit so'zlar; pedagogika, musiqiy ta'lim, estetika, to'garak, metodika ,cholg'u ijrochiligi, musiqiy cholg'u asboblari, ansambl, individual ta'lim.

Keywords: pedagogy, musical education, aesthetics, club, methodology, instrumental performance, musical instruments, ensemble, individual education.

Ключевые слова: педагогика, музыкальное образование, эстетика, кружок, методика, инструментальное исполнительство, музыкальные инструменты, ансамбль, индивидуальное обучение.

Maktablarda o'quvchi yoshlarni milliy va estetik ruhda tarbiyalsh uchun ularda musiqa madaniyati darslariga qiziqish uyg'otish o'zbek milliy musiqa cholg'u asboblari va cholg'u ijrochiliga qiziqishini orttirish maqsadida prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarafidan qarorlar ishlab chiqilmoqda. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lif muassasalarida milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lif to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnama) tegishli qayd kiritiladi. Bu borada Davlatimiz rahbari tomonidan – "Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imzolandi. Qarorga ko`ra, 2022/2023 o'quv yilidan musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va o'tkaziladi. Shuningdek, milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi[1]. Shundan ko'rinish turibdiki, an'anaviy musiqa asboblarini asrash va ularni keyingi avlodga yetkazish dolzarb masaladir va bunda o'qituvchining mahoratli bo'lishi va bir necha cholg'u asboblarini ijro eta olishi muhim ahamiyatga egadir. Milliy xalq cholg'u asboblari ansambl to'garagining rahbari oldida turgan muhim vazifalardan biri ishtirokchilarni tanlash va dastlabki ishlarni amalga oshirishdir. Musiqa fani ta'limida xalq cholg'ularini o'rgatish, milliy madaniyat va merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Xalq cholg'ulari milliy musiqiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali avloddan-avlodga boy musiqa an'analari yetkaziladi. Zamonaviy ta'limda esa interfaol usullar yordamida xalq cholg'ularini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin[2]. Musiqiy to'garaklarni amalga oshirish metodikasi fanning predmeti, bo'lajak tarbiyachi-o'qituvchilariga kelajak avlodni ma'naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash, san'atning qirralari, shakl va yo'llari to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida baxs yuritadi. Musiqiy to'garaklarni tashkil qilish va uni amalga oshirish metodikasi ijtimoiy fan bo'lib, milliy ong va istiqlol mafkurasini shakllantirishga hizmat qiladi. To'garaklar tuzish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. To'garak tuzish dastlab tashkiliy ishlardan boshlanadi va o'z doirasiga qator muamolarni qamrab oladi. Bular :

- to'garak tuzish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni dastlabki muhokamadan o'tkazish;
- to'garakka qatnashuvchilarni jalb qilish va uning tarkibini to'ldirish;
- yangi tuzilgan to'garak bilan raxbarlarning uchrashuvlarini tashkil qilish;
- to'garakka kiruvchilarning musiqiy bilimlarini tekshirib chiqish[3].

Yoshi, musiqiy bilimi hamda biror cholg‘u asbobini chala olishi, qo‘sish qaytlay olishi, raqsga tusha olishi yoki shu soha bo‘yicha tayyorgarligi bor-yo‘qligidan qat’i nazar barcha xohlovchi o‘quvchilar musiqa to‘garagiga qabul qilinadi. Ular bilan bir necha marotaba mashg‘ulot o‘tkazish orqali har birining musiqiy qobiliyati darajasi aniqlanadi va bir necha guruhga ajratiladi[4].

Cholg‘u ijrochilgi to‘garaklarini tashkil qilish va uni amalga oshirishning asosiy tizimi quyidagilar bo‘lishi lozim. Maktablarda sinfdan tashqari ommaviy tadbirdarni amalga oshirish uchun avvalambor to‘garak ishlarini keng yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. To‘garak O‘qituvchisining ijro mahoratini ko‘rgan o‘quvchilarda musiqaga va cholg‘u ijrochiliga qiziqishi ortib boradi. Darsdan tashqari cholg‘u ijrochiligi to‘garaklarini tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Darsdan tashqari to‘garaklarning tashkillanishining asosiy sababi 40 daqiqalik dars davomida rejalashtirilgan dars mavzusi hamda qo‘sish o‘rgatishdan tashqari cholg‘u ijrochiligin o‘rgatish uchun vaqt yetarli emas. Chunki cholg‘u ijrochiligin o‘rgatish uchun iqtidorli va qiziquvchan o‘quvchilar uchun to‘garaklar ochib ma’lum vaqt oralig’ida individual shug’ullanish kerak. Cholg‘u asboblarida kuy ijro etishni o‘rganayotgan o‘quvchi uchun va o‘rgatayotgan o‘qituvchi uchun guruhli darslar muvofiq emas chunki yangi o‘rganayotgan o‘quvchi bilan ma’lum vaqt davomida individual shug’ullanish unda boshlang’ich ko‘nikmalarni osonlikcha o‘zlashtirishiga poydevor bo’ladi. To‘garaklar tashkil qilinishining asosiy maqsadlaridan yana biri o‘quvchi yoshlarning bo’sh vaqtlanidan unumli foydalanishi va vaqtini qadrlantirish. To‘garak ishlarini reja asosida tashkil qilish to‘garakning ijobjiy natijalarga erishishini taminlab beradi. O‘quvchilarni to‘garakka jalg qila olish o‘qituvchining ijro mahoratiga bog’liq. Musiqa ijrochiligin o‘rgatishda o‘qituvchining roli juda muhimdir. O‘qituvchi uchun boshqa fanlardan ortiqcha bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar talab etiladi. Sozanda bo‘lishning yanada o‘zida pedagogik fikrlash, o‘quvchining ichki dunyosini tushunish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo‘lish ham talab etiladi. Cholg‘u ijrochiligidan ta’lim berish o‘qituvchi uchun umumiyyet pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo‘lishi kerak[5]. Avvalo o‘qituvchi iste’dodli va cholg‘u asboblarida ijro eta oladigan bo‘lishi lozim Agar o‘qituvchi faqatgina 1 yoki 2 cholg‘uda ijro etsa musiqa va san’at maktablaridan mutaxasislarni targ’ibot ishlari uchun jalg qilish lozim. Ansambl ijrosi ham to‘garak tashkil qilinishi uchun muhum ahamiyatga ega. Ansambl ijrosida milliy kuylarimizni tinglagan o‘quvchida tog’arakka qatnashish fikri paydo bo’ladi. To‘garakda bir oy davomida o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug’ullanib ularda ko‘nikma hosil bo‘lgandan keyin o‘rgatilgan boshlang’ich kuylarini birgalikta ansambl bo‘lib cholish yo‘lga qo‘yiladi. Ansambl bo‘lib ijro qilayotgan o‘quvchining qalbida milliylikka musiqiy cholg‘u asboblarimizga mehri oshadi. Bir cholg‘u ijrochiligin o‘rganish orqali kelajakka ilk qadamlarini qo‘ya oladi.

Xulosa o‘rnida aytib o’tish joizki, Har bir xalq o‘zining milliy musiqiy merosini sevsما، ajdodlar an`anasini ardoqlasa، uni munosib tarzda o‘zlashtirsa va qadriga yetsa،

o`zga xalqlar san`atini ham baholay oladi. Zero, bizgacha yetib kelgan musiqiy an`analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma`naviy boyligi bo`lgan maqomlar, maqom yo`llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o`zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta`kidlab o`tish joiz. Ularni o`rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va eshtiyorjida bilgan dolzarb masalalardan biridir. Ma`lumki, o`zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg`ularga boy bo`lib, tanbur, dutor, g`ijjak, nay, qo`shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog`ora kabi cholg`ular o`zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o`rin topgan. Chunki har bir cholg`u o`zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barcha siru—sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir[6]. Cholg`u ijrochiligi to`garaklarini tashkil qilish orqali o`quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash va milliy cholg`u asboblariga bo`lgan mehr-muhabbatini uyg`otish orqali milliy cholg`uchilik an`analarini saqlab qolish va avlodlarimizga yetkazib berilishini ta'minlashimiz mumkin. Bu albatta, kelajak avlodga ma`lum bir kasb-hunar egasi bo`lishlariga zamin yaratish bilan birqalikda ularda kasb-hunarga yo`naltirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi . Har qanday to`garak tashkil qilish zamirida o`quvchilarni , yosh avlodni bo'sh vaqtlarini unumli foydalanish va bilim va ko'nikmalarini egallash, qonunbuzarliklarni oldini olish bosh masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurqanatovna, D. J. (2024, April). BOLALARDA CHOLG'U MUSIQA IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 4, pp. 286-292).
2. Jurayeva, G. (2024). MUSIQA FANIDA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal*, 1(1).
3. E.B.Qobilova , Musiqa O'qitish metodikasi
4. Ro'ziyev, U., & Urnova, M. (2023). MUSIQA TO 'GARAGINI TASHKIL ETISH USULLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 2), 17-21.
5. Abduraxmonjon, E., & Shavkatovich, T. B. (2024). CHOLG'U IJROCHILIGIDA IJRO USLUBI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. *JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES*, 7(1), 90-95.
6. Nurqanatovna, D. J. (2024, April). BOLALARDA CHOLG'U MUSIQA IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 4, pp. 286-292).